

## **O‘QUVCHILAR KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISHDA TASVIRIY SAN’ATNING AHAMIYATI**

*Ch.T.Shakirova.*

*Andijon davlat universiteti*

*Pedagogika va San’atshunoslik fakulteti dekani, p.f.n., dotsent*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada tasviriy san’at fanining o‘quvchilar kreativligini rivojlantirishdagi ahamiyati, o‘quvchilardagi shakllanishi kerak bo‘lgan qobiliyat va sifatlari haqida ma’lumotlar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijod, qobiliyat, kreativlik, didaktik usul, noan’anaviy usul.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о значении изобразительного искусства в развитии творческих способностей учащихся, способностях и качествах, которые следует формировать у учащихся.

**Ключевые слова:** творчество, способности, креативность, дидактический метод, нетрадиционный метод.

**Abstract:** This article provides information about the importance of fine arts in the development of students’ creative abilities, abilities and qualities that should be developed in students.

**Key words:** creativity, abilities, creativity, didactic method, non-traditional method.

Bugungi kunda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar kelajak avlodning ertangi kuni, uning farovonligi yo‘lida qo‘yilayotgan tamal toshi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning yoshlar bilan bo‘lgan uchrashuvlarida “Ma’lumki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo‘lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda”, — deya ta’kidlaganlar. Aytishimiz mumkinki, bugungi yosh avlodni rivojlanishida iqtidori, qobiliyatlari, imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ularni ta’lim-tarbiya jarayoniga jalb etish, bunda mamlakatimizda qad ko‘tarayotgan zamonaviy innovatsion maktablar faoliyatini kengaytirish, umumta’lim maktab bitiruvchilarini savodxonlik darajasini yanada oshirish masalalari davlatimiz siyosati oldidagi muhim vazifalarga aylanib bormoqda. Iqtidorli bolalar-yurt kelajagi! Zero, shunday ekan bolalardagi iqtidor, qobiliyat, salohiyatini rivojlantirishda bevosita ta’lim muassasasi, pedagog va oila hamkorligining ahamiyati katta.

Mamlakatimizda yosh avlod ta’lim-tarbiyasiga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘g‘il-qizlarning zamonaviy bilim olishi, yuksak ma’naviyatli bo‘lib ulg‘ayishi uchun zarur sharoit yaratish borasidagi ishlar izchil davom ettirilmoqda.

Ijod bu insonning yangi moddiy va ma’naviy ne’matlar yaratish faoliyati demakdir. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste’dodi namoyon bo‘ladi.

Kreativlik—lotincha so‘z bo‘lib, “ijod” yoki “yo‘q narsadan yaratish” kabi ma’nolarni anglatadi. Kreativlik –shaxs tomonidan amalga oshiriladigan amaliy harakat bo‘lib, u o‘zida muayyan yangilikni, yangi g‘oyalarni aks ettirishi kerak. Kreativlik tushunchasi o‘zida xilma-xillik, qiziquvchanlikni, tafakkur va noan’anaviylikni aks ettiradi. Hozirgi kunda har bir o‘qituvchi ijodkor va kreativ bo‘lishi muhim o‘rin tutadi, bu

esa uning ta’lim-tarbiya jarayonida o’quvchilarda ham ushbu sifatlarni shakllantirish va rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi

Tasviriy san’at fanini o’qitilishi jodkor shaxsning rivojlanishi, uning badiiy qobiliyatlari ro’yobga chiqisida muhim o’rin tutadi. Tasviriy san’at darslari estetik tarbiyaning asosiy vositalaridan xisoblanib, o’quvchilarni ma’naviy barkamol etib tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir. Tasviriy san’at darslarida o’quvchilar ilmiy bilim asoslarini egallaydilar, borliqni kuzatadilar, badiiy qobiliyatlarini orqali mantiqiy xulosa, gipoteza va tahlillar qiladilar. Bu esa ularni g’oyaviy, aqliy, axloqiy, estetik jihatdan tarbiyalashda samarali ta’sir ko’rsatadi. Natijada kreativ yondashuv asosida o’quvchilarda yaratuvchanlik g’oyalari rivojlanadi.

Tasviriy san’at darslari o’quvchilarda ma’naviy dunyoqarashni, g’oyaviy e’tiqodni shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. U fikrlash qobiliyatini, ko’rish xotirasini, ijodiy tasavvurni, badiiy didni, estetik hissiyotni o’stiradi. Tasviriy san’at darslarining har bir o’quvchilar kreativligini rivojlantirishga, dunyoqarashining shakllanishiga yordam beradi, ya’ni shaxsni har tomonlama kamol toptiradi.

Tasviriy san’atning asosiy vazifalaridan biri o’quvchilarga estetik, xususan, badiiy tarbiya berishdir. Estetik tarbiya - bu o’quvchilarning hayotdagi, tabiatdagi, san’atdagi, jamiytdagi go’zalliklarini to’liq idrok etish qobiliyatini tarbiyalashdir. Go’zallik kishilarning aqliga, qalbiga, irodasiga ta’sir etib, ma’naviy dunyoqarashini boyitadi. Tasviriy san’at estetik tarbiyani amalga oshirishga yo’naltirilgan asosiy o’quv fani hisoblanib, u shaxsning tasviriy-ijodiy faoliyatida o’zini ko’rsata bilishga, xatti harakatini qo’llab-quvvatlash va hayotga go’zallik kiritish malakalarini o’stirishlarni amalga oshiriladi.

O’quvchilardagi kreativlikning o’sishida ularning umumiy intellektual va shaxsiy qobiliyatlarining rivojlanganlik darajasi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Masalan, hayotiy voqelikni faol qabul qilish va uni tasviriy ifoda etish uchun joyni to’g’ri tanlash, ranglar jilosi, estetik bilimlar muhim rol o’ynaydi. Alohida “iste’dodli” yoki ayrim tug’ma qobiliyatli, iqtidorli o’quvchilar uchun kreativlikning rivojlanish jarayoni tezroq, sifatli va oson kechadi.

Xozirgi kunda talim tarbiy olayotgan o’quvchi kelajakda ishchi, quruvchi, xizmatchi, dizayner, uchuvchi, muhandis, shifokor, o’qituvchi, yurist yoki harbiy mutaxassis yoki boshqa biron bir sohani egallaydilar. Ularni har biri uchun rasm chizish, undan foydalanish lozim bo’ladi. Har qanday oddiy, asbob-texnika vositalarini ishlatish va ularni sozlash uchun ham grafik bilim va malakalar kerak bo’ladi. Shu boisdan har bir kishi rasm chizishni, grafik tasvirlarini bilishi maqsadga muvofiqdir. Shunday ekan har doim o’qituvchi o’quvchining qiziqishi, qobiliyatini hisobga olib, darslarda didaktik, noanaviy, yangi usul va g’oyaga asoslangan holda, ularning ijodiy faolligini oshira bilishi va mustaqil kasbga yo’llay bilishi kerak.

Shaxsning tasviriy faoliyati ijodkorlik qobiliyatini, tashabbuskorlik, havaskor ijrochilikning namoyon bo’lishini, hissiy sezgirlikni shakllantiradi va har bir inson nima bilan shug’ullanmasin, hayotda qaysi kasbni tanlamasin, shunday fazilatlariga muhtojdir. Ijodkorlikni rivojlantirishda katta imkoniyatlar tasviriy faoliyat va birinchi navbatda rasm chizishni o’z ichiga oladi. Kreativ fikrlash bilim va tajribaga asoslangan haqiqiy kompetensiya bo’lib, insonlarning keskin va murakkab vaziyatlarda kutilgan natijalarga erishishga sharoit yaratadi. Kreativ fikrlaydigan shaxsni tarbiyalash uchun ta’lim tizimida tasviriy san’atning o’rni beqiyos. Tasviriy san’atning asosi esa, badiiy –

ijodiy qobiliyatdir. Kreativ fikrlashni o‘quvchi yoshlar egallashi natijasida ularda dolzarb muammolarni echish uchun qobiliyatlari rivojlanadi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni. 2020-y.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizning mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017-yil, 488-bet.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faolyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Mamlakatimizni 2016-yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017-yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma’ruza, 2017-yil 14-yanvar. -Toshkent: “O‘zbekiston”, 2017-y, 104-b.
4. Asqarova O‘. va boshqalar. Pedagogika. 7-bob. - Toshkent: “Fan”, 2004-yil.
5. “Kreativ pedagogika asoslari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua. T:-20
6. Karshiyeva D.K., Usmonova O.N.. O‘quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlantirishda xalqaro tadqiqotlarning o‘rni // Молодой ученый. — 2023. — № 2 (449).
7. Berdiyev D.A. Umumta’lim maktablarida tasviriy san’atni o‘qitish muammolari (tasviriy san’atni o‘qitish metodikasi tarixi). Scientific Impulse. 1, 9 (May 2023), 520–527.